



## DICTIONARY COMMENTS AND THEIR SEMANTIC ANALYSIS OF SOME OLD WORDS IN “DEVONI FONIY” BY ALISHER NAVOIY

**Diloram Saydoripova**

lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

**Saida Adakhonova**

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** cases of words in the source dictionary, expansion of meaning, narrowing of meaning, and present cases.

**Received:** 28.05.23

**Accepted:** 30.05.23

**Published:** 01.06.23

**Abstract:** This article discusses the original status of some old words in Alisher Navoi's work “Devoni Fani”, their comments in the dictionary, as well as what words are used instead of these old words.

## ALISHER NAVOIYNING “DEVONI FONIY” ASARIDAGI AYRIM ESKI SO‘ZLARNING LUG‘ATLARDAGI SHARHLARI VA ULARNING SEMANTIK TAHLILI

**Diloram Saidoripova**

o‘qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

**Saida Adaxonova**

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** So‘zlarning asl lug‘atdagi holatlari, ma’no kengayishi, ma’no torayishi, va hozirgi holatlari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoining fors tilida yozilgan “Devoni foni” asaridagi ayrim eski so‘zlarning asl holati, lug‘atdagi sharhlari va hozirda aynan o‘sha eski so‘zlar o‘rniga qaysi so‘zlar ishlatilayotgani ko‘rib chiqilgan.

## СЛОВАРНЫЕ КОММЕНТАРИИ И ИХ СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ СТАРЫХ СЛОВ В “ДЕВОНИ ФОНИ” АЛИШЕРА НАВОИ

**Дилорам Сайдорипова**

преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

**Саида Адахонова**

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** падежи слов в исходном словаре, расширение значения, сужение значения и настоящие падежи.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается первоначальный статус некоторых старых слов в произведении Алишера Навои “Девони фаны”, их комментарии в словаре, а также то, какие слова используются вместо этих старых слов.

### KIRISH

Ma'lumki har bir tilning o'zinining tarixi, kelib chiqishi va rivojlanish davrlari bor. Vaqt o'tgani sari mamlakatlar dunyo miqiyosida rivojlanaveradi, shunga yarasha tillar ham rivojlanadi. Tillar rivojlanishining asosiy omillaridan biri bu insonlar aro muloqotda ishlatilishidir. Ammo vaqti kelib ayrim so'zlar asta sekin insonlar aro muloqotdan chiqib keta boshlaydi yani arxaiklashadi. Eski so'zlarning vujudga kelishi esa zamon va dunyo rivojlanishi sabab, bir tildagi leksema boshqa tilga o'zlashishi sabab yuzaga kelishi mumkin.

### ASOSIY QISM

#### **1-baytdan misol:**

*Ey xoki sari ko'yi to' gashtan (havas)i mo,*

*Bar poi sagat bo'sa zadan (multamas)i mo*

*Tarjimasi:*

*Ey ko'chasi tuprog'ida yurish biz uchun (havas) bo'lgan zot*

*Bizning( iltimos)imiz sening iting oyog'ini o'pishdir (D.f. 6 – 7 betlar)*

Bu yerda “**havas**” so'zining baytdan keltirilgan holatiga qarasak, ushbu so'zning tarjimasi ham **havas, orzu**; baytning ma'nosidan kelib chiqqan holda **fahr** ma'nosini ham anglatadi. Ushbu so'zlarning lug'atlardagi holatiga nazar solsak “**havas**” so'zining ma'nosi xuddi baytdagidek (Navoiy tili lug'ati, 1-jild). Ammo baytda “multamas” so'zi “iltimos” ma'nosida kelsa-da, lug'atda “**iltimos qilingan narsa**” ma'nosida kelgan (Navoi asarlari tilining izohli lug'ati, 14- jild).

#### **2-baytdan misol:**

*Dar (bodiyai) shavqi chun rohila bandem*

*Zikri malak oyat zi fig'oni (jaras)i mo*

**Tarjimasi:**

*Shavqing( sahro)sida safar yukini tang'ir ekanmiz,*

*(Qo'ng'irog')imizning fig'onidan farishta zikrining avozi kelib turadi (D.f. 6-7 betlar)*

“Bodiya va jaras” so‘zlarining ma‘nolari xuddi tarjimasida ko‘rsatilganidek, lug‘atlarda ham xuddi shunday ma‘nolarda kelgan ya‘ni “bodiya” bu “sahro”, “jaras” esa “qo‘ng‘iroq” degani.

**3-baytdan misol:**

*Foniy, sifatam ruh konad sui to' parvoz,*

*Ey, az shakarestoni to' quti (magasi) mo*

**Tarjimasi:**

*Men Foniy sifatman, ruh esa sen tomon parvoz qiladi,*

*Ruhimiz (chivin)ining ozug'i sening shakaristiningdandir (D.f. 6-7 betlar)*

Baytda **magas** so‘zi “**chivin**” hashoratni anglatmoqda.

**4-baytdan misol:**

*Ey, bo guliston hazor (narges)i shahlo*

*Dar gilu gulzori orazat bo tomosho*

**Tarjimasi :**

*Ey, go'zal gulistondagi minglarcha shahlo ko'zli (nargiz) gullar*

*Loyda turib orazing gulzorini tomosha qilmoqdadir (D.f. 8-9 betlar)*

Baytda ko‘rsatilgan “**nargiz**” so‘zi bu “**bo‘tako‘z guli**”. Ba‘zan dorivor o‘simlik “**Zafaron**” o‘simligiga nisbatan ham ishlatiladi.

**5-baytdan misol:**

*Lolavu gul az tajallin to' bo xubi*

*Qumriyu bulbul zi shavqi to' bo (alolo)*

**Tarimasi:**

*Lola bilan gulning go'zalligi sening ravshan nuringdandir*

*Qumri bilan bulbulnig ohu (fig'on)i sening shavqingdandir (D.f. 8-9 betlar)*

“**Alolo**” so‘zining baytdagi ma‘nosi “**fig'on**”, “**oh chekmoq**” ma‘nolarida kelmoqda.

**6-baytdan misol:**

*Dar ruxi ro'z az ruxi to' (boriqa)i mehr,*

*Dar dilu shab az g'ami to' (moya)i savdo*

**Tarjimasi :**

*Kunduz yuzidagi mexr (chaqmog'i) sening yuzingdanu*

*Tunning dilidagi savdo (qorong'ulik) sarmoyasi sening g'amingdandir (D.f. 8-9 betlar)*

Satrdagi “**boriqa**” so‘zi lug‘atlarda “**nur, shula, yashin**” ma‘nolarini ifodalashi yozilgan, baytda ham huddi shunday. “**Moya**” so‘zining ma‘nosi esa satrda “**sarmoya**” ma‘nosini anlatgan. Ammo XI asrda yashagan lug‘atshunos va shoir Asadi Tusiyning lug‘atida keltirilishicha, ushbu so‘zning ma‘nosi: asl mohiyat, sabab, asos, bois, mol-mulk.

#### 7-baytdan misol:

Ramuzul ishq konad mushkilan, bil –aks xallilxo

Ki on yoquti maxlulat namoyad (**xal**)li mushkilho

#### Tarjimasi :

Ishq sirlari qiyin ekan uni may bilan oson qil,

Chunki eritilgan yoqut mushkillarni (**hal qiladi**) (D.f. 12-13 betlar)

Baytdagi xal so‘zi arabiy so‘z bo‘lib “hal qilmoq” degani (Navoiy tili lug‘ati 1 –jild)

#### 8-baytdan misol

Sui dayri mugon bixrom to biniy do sad (**maxfel**)

Sarosar zo-oftobi may( **furuzon**) sham‘i maxfelho

#### Tarjimasi:

Sen mayxonaga bor , ul yerda ikki yuzcha (**davra**)ni ko‘rasanki

Undagi davralar boshdan oyoq may sham‘idan (**yop- yorug‘**) bo‘lib turadi (D.f. 12-13 betlar)

Baytdagi “**maxfel**” so‘zi “**bazm**”, “**davra**” ma‘nosida kelmoqda, ammo lug‘atlardagi sharhlarida “**majlis**” ma‘nosi ham bor. “**Furuzon**” so‘zi “**yorug‘lik**”, “**alangali**” , “**nur sochuvchi**” manolarini ifodalagan (Alisher Navoiyning asarlari tilining izohli lug‘ati 1-4 jildlar).

Ammo baytlarda qo‘llanilgan so‘zlarni mutlaqo muloqotdan chiqib ketgan, deya olmaymiz, masalan: “maxfel”, “bodiya”, “magas”, “narges”, “havas”, “alolo” “jaras”, “moya”, “hal kardan”. Eron Islom Respublikasida ko‘proq rasmiy holatlarda ishlatilayotgani ma‘lum bo‘ldi. Jumladan, turli ko‘rsatuv, multfilmlar, kino va reklamalarda ishlatilayotganini guvohi bo‘ldik.

Quyidagi jadvalda hozirgi zamonaviy fors tilida yuqorida ko‘rsatilgan so‘zlarning o‘rniga hozirda ko‘proq qaysi so‘zlar ishlatilayotgani berilgan.

| So‘zning asl holati | Lug‘atlardagi sharhi                      | Hozirgi sharhi                                                             |
|---------------------|-------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|
| هوس                 | Havas, orzu, xom xayol (ma‘no kengaygan)  | حذف، آرزو                                                                  |
| ملتمس               | Iltilmos qilingan narsa                   | لطف<br>(Ushbu so‘zning aynan o‘zi emas shu so‘zga yaqin ma‘nodoshlari bor) |
| فوروزان             | Alangali, nur sochuvchi (ma‘no kengaygan) | نور، روشانی                                                                |
| بادیاء              | Cho‘l, saxro, biyobon                     | دشت، کویر                                                                  |

|       |                                                                                                                                                                            |                                                                                                           |
|-------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| جرس   | Qo'ng'iroq                                                                                                                                                                 |                                                                                                           |
| مگس   | Pashsha, chivin (ma'no kengaygan)                                                                                                                                          | مگس                                                                                                       |
| الالا | Shovqin-suron, qiy-chuv (ma'no kengaygan)                                                                                                                                  | سروصدوبا                                                                                                  |
| نرگیس | Bo'tako'z, (gul nomi Zafaron o'simligiga nisbatan ham ishlatiladi)                                                                                                         | نرگیس                                                                                                     |
| باریق | Nur, shu'la, yashin (ma'no kengaygan)                                                                                                                                      | صاعقه                                                                                                     |
| مایا  | Asl mohiyat, asos bois, sabab, mol-mulk. (ma'no kengaygan) (XII asrda yashagan lug'atshunos va shoir Asadi Tusiyning "Lug'ati furs" nomli asarida ushbu so'z qo'llanilgan) | سبب، علت، باعث<br>(Agarda so'zni sal kuchaytirilgan variantiga nazar solsak bizga موجب sozi kerak boladi) |
| مخفیل | Bazm, majlis, anjuman, majlis joyi                                                                                                                                         | جلسه، مجلس                                                                                                |
| حَلّ  | Hal qilish, yechish (ma'no kengaygan)                                                                                                                                      | کردن برطرف                                                                                                |

## XULOSA

Xulosa o'rnida aytish kerakki, so'zlarning deyarli 98 foizi hozirgi paytda boshqa so'zlar bilan qo'llanilar ekan. Tadqiqotlar natijasida Alisher Navoiyning "Devoni foniy" asarida arabiy ismiy so'zlar ham ishlatilgani ma'lum bo'ldi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fozilov E. Alisher Navoiyning asarlari tilining izohli lug'ati (1-4 jildlar). – T., 1985.
2. Asadi Tusiy. "Lug'ati furs". Xo'jand. "Nuri ma'rifat" 2015y.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Devoni Foni. 18 J.
4. Yusuf B. Navoiy tili lug'ati. J. 1. – T.: Sharq, 2018.
5. Farhangi zabone tojiki. – M.: Sovet instiklopediyasi, 1969.
6. Восканян Г.А. Русско-персидский словарь. – М., 2005.
7. Персидско-русский словарь. – М., 1983.